



# XORAZM VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020-yil 1-may holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.



## Vatanimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor


Vatanimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab izchil amalga oshirilib kelinayotgan islohotlar samarasi o'laroq, bugun iqtisodiyotning barcha sohalarida ulkan muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Respublikamiz iqtisodiy ko'rsatkichlari yildan-yilga yuqorilab bormoqda.

Mustaqilligimizning o'tgan davri davomida barcha sohalarda yuz berayotgan o'zgarishlar qatorida statistika sohasida ham ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdag'i jarayonlarni, o'zgarishlarni xalqaro talablarga mos ravishda statistik ko'rsatkichlarda aks ettirib borish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilib borilmoqda.

O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda.


Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

### **Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda***




2020-yil 1-may holatiga ko'ra, Xorazm viloyatida 21 472 ta korxona va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21,4 foizga o'sgan. Natijada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 3 413 ta (20,4 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 20 125 tani tashkil etgan.


## Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*



**Mas’uliyati cheklangan jamiyat  
*birlikda***





**Xususiy korxona  
*birlikda***



## Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar


Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rilganda 27,2 % savdo, 16,3 % sanoat, 10,0 % qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 9,2 % qurilish, 6,5 % yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar, 3,5 % tashish va saqlash, 2,2 % sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1,2 % axborot va aloqa hamda 23,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda**





## Tumanlar bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar soni, *birlikda*




Ro‘yxatdan o‘tgan korxona va tashkilotlar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (23,4 %), Urganch tumani (10,8 %), Xiva shahri (8,8 %), Xiva tumani (8,1 %), Xonqa tumani (7,7 %), Hazorasp tumani (7,1 %), Qo‘shko‘pir tumani (6,7 %), Gurlan tumani (6,4 %), Yangiariq tumani (5,9 %), Bog‘ot tumani (5,3 %), Shovot tumani (5,1 %), Yangibozor tumani (4,6 %) va Tuproqqal'a tumani (0,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.

## Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 20 125 tani tashkil etib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 3 413 ta (20,4 %) ga o‘sgan.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar ulushi, foizda



Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (22,9 %), Urganch tumani (10,7 %), Xiva shahri (8,9 %), Xonqa tumani (8,0 %), Xiva tumani (7,9 %), Hazorasp tumani (7,3 %), Qo‘shko‘pir tumani (6,7 %), Gurlan tumani (6,5 %), Yangiariq tumani (6,0 %), Bog‘ot tumani (5,3 %), Shovot tumani (5,0 %), Yangibozor tumani (4,7 %) va Tuproqqal'a tumani (0,1 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.



**Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan  
korxona va tashkilotlar soni, *birlikda***

**Yangibozor t. - 946**

**Urganch t. - 2 157**

**Gurlan t. - 1 311**

**Urganch sh. - 4 619**

**Xonqa t. - 1 600**

**Hazorasp t. - 1 468**

**Tuproqqa'l'a t. - 27**

**Shovot t. - 1 004**

**Bog‘ot t. - 1 063**

**Yangiariq t. - 1 202**

**Xiva t. - 1 586**

**Xiva sh. - 1 787**


**Qo‘shko‘pir t. - 1 355**



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar


2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 955 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 16,3 foizga kamdir. Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Urganch shahri (314 ta), Qo‘shko‘pir (209 ta) Gurlan (183 ta), Yangibozor (183 ta), tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Aksincha, kamroq qismi esa Tuproqqa'l'a (21 ta), Shovot (94 ta), Hazorasp (105 ta), Xiva (110 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

### 2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tumanlar bo‘yicha soni, *birlikda*





## 2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



■ 2019-y. ■ 2020-y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganida savdo (29,0 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (23,6 %), sanoat (22,4 %), qurilish (6,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (5,7 %), tashish va saqlash (1,9 %), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1,9 %), axborot va aloqa (1,3 %) va boshqa faoliyat turlari (8,2 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo‘yicha faoliyat  
ko‘rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**

**107**  
boshqalar

**29**  
aksiyadorlik  
jamiyat

**159**  
unitar korxona

**3 080**  
oilaviy korxona


**5 142**  
xususiy korxona

**8 537**  
mas’uliyati  
cheklangan jamiyat

**17 054**  
tijorat korxonalari

2020-yil 1-may holatiga ko‘ra, 17 054 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatayotgan bo‘lib, shundan oilaviy korxonalar – 3 080 ta, xususiy korxonalar – 5 142 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 8 537 ta va boshqalar 295 tani tashkil etgan.

**Yangi tashkil etilgan tijorat korxona va tashkilotlari soni va ulushi,  
birlikda va foizda**





## Kichik korxona va mikrofirmalar

2020-yil 1-may holatiga ko‘ra, viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16 952 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 24,5 % ga oshgan.

### **Tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, *birlikda***

	Kichik korxona va mikrofirmalar soni	<i>shundan:</i>	
		kichik korxonalar	mikrofirmalar
Xorazm viloyati	<b>16 952</b>	<b>1 026</b>	<b>15 926</b>
Urganch sh.	3 922	369	3 553
Xiva sh.	1 657	65	1 592
<i>tumanlar:</i>			
Bog‘ot	842	51	791
Gurlan	1 089	59	1 030
Qo‘shko‘pir	1 113	36	1 077
Urganch	1 886	148	1 738
Hazorasp	1 165	74	1 091
Tuproqqa'l'a	5	0	5
Xonqa	1 346	69	1 277
Xiva	1 374	40	1 334
Shovot	769	54	715
Yangiariq	1 006	32	974
Yangibozor	778	29	749



## **2020-yil 1-may holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi, foizda**

### **Eng katta ulushi:**

- Urganch sh.  
**23,1 %**
- Urganch t.  
**11,1 %**
- Xiva sh.  
**9,8 %**
- Xiva t.  
**8,1 %**
- Xonqa t.  
**7,9 %**
- Hazorasp t.  
**6,9 %**

### **Eng kichik ulushi:**

- Qo‘shko‘pir t.  
**6,6 %**
- Gurlan t.  
**6,4 %**
- Yangiariq t.  
**5,9 %**
- Bog‘ot t.  
**5,0 %**
- Yangibozor t.  
**4,6 %**
- Shovot t.  
**4,5 %**
- Tuproqqal'a t.  
**0,1%**

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 3 922 tasi (23,1 %) Urganch shahri, 1 886 tasi (11,1 %) Urganch tumani, 1 657 tasi (9,8 %) Xiva shahri hamda 1 374 tasi (8,1 %) Xiva tumani hissalariga to‘g‘ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 16 952 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 469 ta (32,3 %) - savdo, 3 241 ta (19,1 %) - sanoat, 1 954 ta (11,5 %) - qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 1 840 ta (10,9 %) - qurilish, 1 279 ta (7,5 %) - yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 698 ta (4,1 %) - tashish va saqlash, 374 ta (2,2 %) - sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 221 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1 876 tasi (11,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi.



## Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha soni, birlikda

**01.05.2019-y.**


**01.05.2020-y.**



2020-yil yanvar-aprel oylarida 1 916 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 334 taga kamdir. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Urganch shahri (311 ta), Qo‘siko‘pir tumani (206 ta), Yangibozor tumani (182 ta), Gurlan tumani (182 ta), Urganch tumani (164 ta), Xiva shahri (151 ta), Xonqa tumani (148 ta), Yangiariq tumani (134 ta), Bog‘ot tumani (131 ta), Xiva tumani (108 ta), Hazorasp tumani (101 ta), Shovot tumani (93 ta), Tuproqqa‘l’ a tumanida (5 ta) tashkil etilgan.



## 2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda




Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda asosiy qismi savdo (567 ta), sanoat (436 ta), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (459 ta) va qurilish (117 ta) sohalarida tashkil etilgan. Axborot va aloqa (25 ta), sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (37 ta) hamda tashish va saqlash (38 ta) sohalarida esa kamroq tashkil etilgani kuzatilmoqda.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2020-yil 1-may holatiga ko‘ra, 3 298 tani tashkil etib, ulardan 3 080 tasi yoki 93,4 % faoliyat ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro‘yxatidan o‘tganlarning hamda faoliyat ko‘rsatayotganlarning umumiy soni o‘rtacha 94,1 % ga oshganligini ta’kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar soni, *birlikda*



### Oilaviy korxonalarning soni to‘g‘risida ma’lumot, *birlikda*




**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni va ulushi, *birlikda va foizda***

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>714</b>	<b>100</b>
Urganch sh.	75	10,5
Xiva sh.	75	10,5
<i>tumanlar:</i>		
Bog‘ot	55	7,7
Gurlan	44	6,2
Qo‘sisko‘pir	83	11,6
Urganch	47	6,6
Hazorasp	18	2,5
Tuproqqał'a	0	0
Xonqa	92	12,9
Xiva	29	4,1
Shovot	22	3,1
Yangiariq	76	10,6
Yangibozor	98	13,7



## 2020-yil yanvar-aprel oyalarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, foizda




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 30,9 % (221 ta) sanoat, 26,1 % (186 ta) savdo, 22,9 % (164 ta) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 10,6 % ( 76 ta) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari, 1,3 % (9 ta) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 0,6 % (4 ta) axborot va aloqa, 0,4 % (3 ta) tashish va saqlash, 0,3 % (2 ta) qurilish hamda 6,9 % (49 ta) boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2020-yil 1-may holatiga ko‘ra, faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 152 tani tashkil etdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan 61 taga yoki 67,1 % ga o‘sgan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahri 46 ta (30,3 %), Urganch tumani 20 ta (13,2 %) va Xiva shahrida 14 ta (9,2 %) tashkil etgan. Eng kam ulushi esa Yangiariq 6 ta (3,9 %), Qo‘shko‘pir 6 ta (3,9 %), Gurlan 7 ta (4,6 %) hamda Xonqa 7 ta (4,6 %) tumanlarida tashkil etgan.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni to‘g‘risida ma’lumot, *birlikda*



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarning 93 tasi qo‘shma, 59 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.






**Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxona va tashkilotlar soni, *birlikda***

	<b>Jami</b>	<i>shundan:</i>	
		<b>qo’shma korxonalar</b>	<b>xorijiy korxonalar</b>
<b>Xorazm viloyati</b>	<b>152</b>	<b>93</b>	<b>59</b>
<b>Urganch sh.</b>	46	30	16
<b>Xiva sh.</b>	14	9	5
<i>tumanlar:</i>			
<b>Bog’ot</b>	8	7	1
<b>Gurlan</b>	7	6	1
<b>Qo’shko‘pir</b>	6	4	2
<b>Urganch</b>	20	6	14
<b>Hazorasp</b>	9	3	6
<b>Tuproqqał'a</b>	0	0	0
<b>Xonqa</b>	7	4	3
<b>Xiva</b>	11	5	6
<b>Shovot</b>	11	9	2
<b>Yangiariq</b>	6	4	2
<b>Yangibozor</b>	7	6	1

**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni, birlikda**




**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning ulushi, foizda**




## **Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning soni 22 tani tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich esa o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga kamaygan. Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarning asosiy qismi Urganch shahri 11 ta (50,0 %), Xiva shahri 3 ta (13,6 %) va Urganch tumani 3 ta (13,6 %) hissalariga to‘g‘ri keladi. Kamroq ulushi esa Xonqa 1 ta (4,5 %), Xiva 1 ta (4,5 %) va Yangibozor 1 ta (4,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, birlikda**




2020-yil yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning Turkmaniston (5 ta), Rossiya (5 ta), Turkiya (5 ta), Eron (2 ta), Qozog‘iston (2 ta), AQSh (1 ta), Shveytsariya (1 ta) va Janubiy Koreya (1 ta) davlatlari rezidentlari ishtirokida yangi tashkil etilgan.



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, qurilish (6 ta), savdo (5 ta), sanoat (5 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (2 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (1 ta) va boshqa faoliyat turlari (1 ta) hissasiga to'g'ri keladi.

**2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,  
foizda**



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi  
statistik registrlarni yuritish bo'limi.  
Telefon:(62) 224-65-11